

**YOSH TADBIRKORLAR VA STARTAPLAR UCHUN INNOVATSION
IMKONIYATLAR**

Olimova Barchinoy Jahongir qizi

olimovabarchinoy75@gmail.com

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU talabasi

Yusufbekova Fotima Holbek qizi

yusufbekovafotima3@gmail.com

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU talabasi

Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi

munisa_shayzoqova8112@mail.ru

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU talabasi

Nizomiddinova Feruza G‘iyosiddin qizi

nizomiddinovaferuza36@gmail.com

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yosh tadbirkorlar va startaplar uchun yaratilayotgan innovatsion imkoniyatlar yoritilgan. Mavzuning dolzarbligi texnologik taraqqiyot, davlat siyosati, xorijiy tajriba va ilmiy yondashuvlar orqali asoslab berilgan. Maqolada yoshlarning startap ekotizimidagi faolligi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari, shuningdek, raqamli iqtisodiyotda startaplarning o‘rni haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, O‘zbekistondagi qonunchilik asoslari, amaliy dasturlar, statistik ko‘rsatkichlar va xorijiy tajribalar misolida innovatsion imkoniyatlarning real holati tahlil qilingan. Yakuniy qismda esa yosh tadbirkorlar faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiya va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Yosh tadbirkor, startap, innovatsion imkoniyatlar, raqamli iqtisodiyot, inkubatsiya, akseleratsiya, grant, davlat dasturlari, ekotizim, ta‘lim va biznes integratsiyasi.*

Kirish

So‘nggi yillarda dunyo bo‘yicha yoshlar orasida tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Global Entrepreneurship Monitor (GEM) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yil holatiga dunyo bo‘yicha 18-34 yosh oralig‘idagi aholining 23 foizi o‘z biznesini boshlash yoki uni rivojlantirish ustida ishlayotgani aniqlangan. Bu esa yoshlar orasida startaplar va innovatsion g‘oyalarga qiziqish kuchayganini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, blokcheyn, “Internet of Things” kabi ilg‘or yo‘nalishlarning ommalashuvi tufayli bugungi kunda startaplar orqali tez, samarali va nisbatan arzon yechimlar yaratish mumkin bo‘lib qoldi.

Dunyo bo'yicha innovatsion ekotizimlar shakllanmoqda: AQShning Silikon vodiysi, Hindistonning Bangalore shahri, Xitoyning Shenzhen hududi yosh startapchilarga texnik, moliyaviy va intellektual ko'mak ko'rsatib kelmoqda. Bu esa global raqobatda ilg'or fikrli yoshlar uchun katta imkoniyatlar ochmoqda. Jumladan, "The Lean Startup" (Eric Ries) va "Zero to One" (Peter Thiel) kabi asarlar zamonaviy startap yondashuvlarining nazariy asoslarini shakllantirib, yosh tadbirkorlar uchun muhim yo'l xaritasi bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston misolida ham so'nggi yillarda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish borasida qator tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi, IT-park rezidentlik tizimi, venchur fondlar faoliyati va "Startup Milliy tanlovi" kabi tashabbuslar orqali yoshlar o'z g'oyalarini biznesga aylantirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Davlat statistika qo'mitasining 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda har yili 10 mingdan ortiq yoshlar o'z biznesini ro'yxatdan o'tkazmoqda.

Ushbu maqolada yosh tadbirkorlar uchun mavjud innovatsion imkoniyatlar, muvaffaqiyat omillari, xalqaro tajribalar hamda O'zbekistonda mavjud infratuzilmalar asosida qanday qo'llab-quvvatlov mexanizmlari borligi tahlil qilinadi. Shuningdek, kelajakda yosh startapchilarning muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan strategik yo'nalishlar haqida fikr yuritiladi.

Adabiyotlar sharhi

O'zbek olimlaridan quyidagilar o'z ilmiy ishlanmalarida mavzuga oid nazariy fikrlar bildirgan.

T. Xolmurodov – "Innovatsion iqtisodiyot asoslari". Ushbu ishda innovatsiyalarni joriy qilishning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri, xususan, yoshlar o'rtasida startaplar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash muhimligi ko'rsatilgan. Muallif yoshlarning innovatsion g'oyalarini real biznesga aylantirish mexanizmlarini tahlil qiladi.

Sh. Axmedov – "Yoshlar va innovatsion faoliyat". Ishda O'zbekiston sharoitida yoshlar orasida innovatsion fikrlashni shakllantirish, davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar (grantlar, inkubatorlar, akseleratorlar) tahlil qilinadi. Tadbirkorlik va startaplar rivojiga oid amaliy tavsiyalar keltirilgan.

M. Jo'rayev – "Startup loyihalar: shakllanish va rivojlanish bosqichlari". Muallif startaplarning turlari, ularning rivojlanish bosqichlari, moliyaviy manbalar, investorlar bilan munosabatlar va muvaffaqiyatli loyihalarning omillarini o'rganadi.

N. Tursunov – "Innovatsion menejment". Ishda startaplar va innovatsion loyihalarni boshqarish uslublari, bozorni tahlil qilish va mahsulotni tijoratlashtirish usullari bayon etilgan.

Xorijiy olimlardan quyidagilar o'z ilmiy ishlanmalarida mavzuga oid nazariy fikrlar bildirgan.

Eric Ries – *The Lean Startup*. Bu ishda startaplar qanday qilib tez va samarali tarzda ishga tushirilishi, bozorga moslashishi va foydalanuvchi ehtiyojlariga mos mahsulotlar yaratish strategiyasi yoritilgan. “Build-Measure-Learn” modeli ayniqsa muhim.

Steve Blank – *The Startup Owner’s Manual*. Blank o‘z ishida startaplar uchun mijozlarni aniqlash, sinovdan o‘tkazish va bozorga chiqish strategiyalarini batafsil tushuntiradi. U startaplarni “mijoz topishga xizmat qiladigan muassasa” sifatida ta’riflaydi.

Peter Thiel – *Zero to One*. Muallif innovatsiyalarni “noldan birga” ya’ni, yangi mahsulot yoki xizmat yaratish orqali mavjud bozorni tubdan o‘zgartirish deb baholaydi. Yosh tadbirkorlar uchun ijodkorlik va farqlilik muhimligiga urg‘u beradi.

Clayton Christensen – *The Innovator’s Dilemma*. Ishda yirik kompaniyalarning innovatsion imkoniyatlarni qanday qo‘ldan boy berishi va kichik startaplarning qanday qilib bu imkoniyatlardan foydalangan holda muvaffaqiyatga erishishi tahlil qilingan. Bu yosh startaplar uchun strategik tavsiyalar beradi.

Thomas Eisenmann – *Why Startups Fail*. Har bir startap muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Ushbu kitobda asosiy muvaffaqiyatsizlik sabablari (noto‘g‘ri bozor, moliyaviy xatolar, jamoa muammolari) o‘rganiladi. Shu orqali yosh tadbirkorlar o‘z loyihalarida xatolardan qochishlari mumkin.

Metodologiya

Ushbu maqolada yosh tadbirkorlik va startaplar faoliyatining innovatsion imkoniyatlari tahlil etilgan. Maqola yozishda statistik ma’lumotlardan, hukumat qarorlari va xorijiy tajribalardan, shuningdek, ilmiy manbalar – “The Lean Startup” va “Zero to One” kabi asarlardagi nazariy yondashuvlardan foydalanilgan. Tahlil davomida startaplar soni, ularning sektorlar bo‘yicha taqsimoti, davlat tomonidan ajratilgan grantlar miqdori kabi ko‘rsatkichlar ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, yosh tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy dasturlar asosida mavjud imkoniyatlar va muammolar tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar


Yosh tadbirkorlar uchun innovatsion imkoniyatlar tobora kengayib borayotgani bugungi zamonaviy iqtisodiyotda yaqqol sezilmoqda. Bu imkoniyatlar texnologik taraqqiyot, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, global bozorga chiqish osonlashuvi va ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar orqali yuzaga chiqmoqda. Ayniqsa, startaplar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlarning o‘z g‘oyalarini biznesga aylantirishlariga qulay muhit yaratmoqda.

So‘nggi yillarda yoshlar orasida biznesga qiziqish ortib bormoqda. Dunyo bo‘yicha har yili o‘rtacha 100 milliondan ortiq yangi startap ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Ularning katta qismi texnologik, ijtimoiy yoki ekologik muammolarga yechim topishga qaratilgan. Yosh tadbirkorlar va startaplar bugungi raqamli iqtisodiyotda

muhim rol o‘ynamoqda. Ular innovatsion g‘oyalar asosida yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish orqali bozor talablariga tezkor moslashadi.


Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, aynan startaplar iqtisodiy o‘sish, bandlik va texnologik yangiliklar uchun asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Statista ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda global startap bozori hajmi 4,5 trln AQSh dollariga yetgan. Bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan qariyb ikki barobar o‘sgan

1-jadval: 2020–2023 yillar oralig‘ida global startap bozori hajmi (mlrd \$)



Yoshlar o‘rtasida startap faoliyatiga qiziqish ortib borayotgani kuzatilmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) ma’lumotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har 10 nafar yoshdan 4 nafari o‘z tadbirkorlik faoliyatini boshlash niyatida. O‘zbekiston misolida olsak, 2024-yilning yanvar holatiga ko‘ra, mamlakatimizda 46 mingdan ortiq yosh tadbirkor ro‘yxatdan o‘tgan. Ularning katta qismi IT, agrobiznes va elektron tijorat yo‘nalishlarida faoliyat yuritmoqda.

2-jadval: O‘zbekistondagi yosh tadbirkorlarning sohalar bo‘yicha taqsimoti (2024)



Biroq muammolar ham mavjud. Eng asosiy to‘siqlardan biri – moliyalashtirish va investorlar bilan aloqaning sustligi. 2022-yilda tashkil etilgan startaplarning atigi 27 foizi dastlabki 2 yil ichida barqaror daromadga ega bo‘lgan. Qolganlari esa moliyaviy, huquqiy yoki boshqaruvdagi qiyinchiliklar tufayli faoliyatini to‘xtatgan.

O‘zbekiston hukumati yosh tadbirkorlarni bunday muammolardan bartaraf etish maqsadida bir qator tashabbuslarni ilgari surmoqda. 2022-yil 21-iyundagi Prezident qarori bilan “Yoshlar startup tashabbuslari” dasturi ishga tushirilgan. Dastur doirasida 2023-yil hisobiga ko‘ra : qollab quvvatlangan startaplar soni 210 tani va ajratilgan grandlar miqdori esa 17mlrd so‘mni tashkil qilgan. Shuningdek, 400+ yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Shuningdek, 2023-yilda esa “Innovatsion rivojlanish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash markazi” faoliyati boshlangan bo‘lib, u yosh tadbirkorlarga inkubatsiya, akseleratsiya, moliyaviy ko‘mak kabi xizmatlarni taqdim etadi. Bularga qo‘shimcha ravishda 2025-yil 1-aprelgacha “Yosh tadbirkorlar” raqamli platformasi joriy etilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bu platforma orqali yosh tadbirkorlarga kompleks xizmatlar ko‘rsatiladi. Shuningdek, “Yoshlar biznesi” dasturi doirasida 350 mingta yosh qamrab olinadi va kamida 100 mingta qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi.

Ilmiy yondashuvlar nuqtai nazaridan, startaplar muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun innovatsion imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish juda muhim. “The Lean Startup” (Eric Ries) kitobida aytilishicha, startaplar ilk bosqichda minimal funksional mahsulot (MVP) yaratib, foydalanuvchi fikrlarini tezda tahlil qilish orqali mahsulotni doimiy takomillashtirishi kerak. Bu yondashuv resurslarni tejash bilan birga, muvaffaqiyatli yechimlarni topishga xizmat qiladi. Bu metodologiya O‘zbekistondagi ko‘plab startaplar tomonidan qo‘llanilmoqda.


Peter Thiel tomonidan yozilgan “Zero to One” asarida esa muvaffaqiyatli startaplar bozorda tub o‘zgarish qiluvchi, noyob mahsulot yaratishga intilishi kerakligi ta’kidlanadi. Bu “yangi narsa yaratish” orqali raqobatdan qochib, monopoliyaga

erishish imkonini beradi.. Bu yondashuv yoshlar orasida kreativlik va innovatsion fikrlashni rag‘batlantiradi.

Xorijiy tajribaga nazar tashlasak, AQShda Y Combinator dasturi orqali yuzlab startaplar milliard dollarlik kompaniyalarga aylangan. Janubiy Koreyada esa “Creative Economy Innovation Center” yoshlar uchun bepul texnoparklar, laboratoriyalar va investor uchrashuvlarini taklif qilmoqda.

O‘zbekistonda 2021-yildan buyon faoliyat yuritayotgan “Startup Initiative” dasturi orqali minglab yoshlar o‘z g‘oyalarini biznesga aylantirishmoqda. 2023-yilda ushbu dastur doirasida 250 dan ortiq startapga 1 million dollardan ziyod mablag‘ ajratilgan.

3-jadval: “Startup Initiative” doirasida qo‘llab-quvvatlangan loyihalar soni (yillik).



Bu kabi tashabbuslar O‘zbekistonda yoshlar startap ekotizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday bo‘lsa-da, mavjud imkoniyatlarni to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun bir qator chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim. Shu nuqtai nazardan quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Taklif va tavsiyalar

Startaplar uchun moliyaviy savodxonlik, marketing va jamoa boshqaruvi bo‘yicha qisqa kurslar yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Ta‘lim tizimi bilan startap ekotizimini bog‘lovchi inkubatsiya markazlari har bir oliygohda tashkil etilishi kerak.

Investorlar va yoshlar o‘rtasida ko‘prik bo‘luvchi raqamli platformalar soni ko‘paytirilishi zarur.

Xorijiy tajribalarni o‘rganish uchun startaplar uchun almashinuv dasturlari yo‘lga qo‘yilishi mumkin.

Xulosa

Yosh tadbirkorlar va startaplar uchun yaratilayotgan innovatsion imkoniyatlar bugungi raqamli iqtisodiyotda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ularning muvaffaqiyati, asosan, texnologik rivojlanishdan to‘g‘ri foydalanish, davlat tomonidan yaratilgan

qo‘llab-quvvatlovchi muhit va ilmiy asoslangan yondashuvlarga bog‘liq. Mavjud statistik ma‘lumotlar va real misollar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar orasida tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bilan birga, “Lean Startup” va “Zero to One” kabi nazariy yondashuvlarning amaliyotda qo‘llanilishi natijasida startaplar bozor talabiga tez va moslashuvchan javob bera olishmoqda.

O‘zbekiston misolida, davlat dasturlari orqali ajratilgan grantlar, yaratilgan inkubatsiya va akseleratsiya muhitlari, shuningdek, raqamli platformalarning joriy etilishi yosh tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlarni ochib bermoqda. Biroq hali ham moliyaviy savodxonlik, marketing ko‘nikmalari va tajriba yetishmovchiligi muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Shu boisdan, ta‘lim tizimini startap ekotizimi bilan uyg‘unlashtirish, xalqaro tajribalarni joriy etish va innovatsion madaniyatni shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ries, Eric. *The Lean Startup: How Today's Entrepreneurs Use Continuous Innovation to Create Radically Successful Businesses*.
2. Thiel, Peter. *Zero to One: Notes on Startups, or How to Build the Future*.
3. Statista (2023). Global Startup Ecosystem Size.
4. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO). Youth Entrepreneurship Reports, 2022–2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (2022-yil 21-iyun). “Yoshlar startap tashabbuslari” dasturi.
6. Innovatsion rivojlanish vazirligi hisobotlari, 2023.
7. Startup Initiative Dasturi Ma‘lumotlari, 2023.

Internet saytlari:

1. www.statista.com — Dunyo miqyosidagi startap bozori hajmi statistikasi
2. <https://link.springer.com> — Startaplarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri haqidagi ilmiy maqola
3. www.my.gov.uz — O‘zbekiston hukumati tomonidan e’lon qilingan rasmiy qaror va dasturlar
4. www.ilmiy.uz — O‘zbekistondagi startaplar bo‘yicha ilmiy tahliliy maqolalar va statistikalar